

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYALARI

Normo'minova Gulhayo Shavkat
qizi

Samarqand davlat pedagogika
instituti

Pedagogika kafedrası
assistenti

:

Xurozova Nilufar

Samarqand davlat pedagogika
Instituti

Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi

ANNOTATSIYA

Mazkur mavzu boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini yoritishga bag'ishlangan. Unda o'qituvchining pedagogik, psixologik, metodik va kommunikativ bilim hamda ko'nikmalari muhim o'rin egallashi ta'kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining innovatsion texnologiyalarni qo'llay olishi, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi va ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berishi zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Boshlang'ich ta'limda yuqori kasbiy kompetensiyaga ega o'qituvchi barkamol avlodni shakllantirishda muhim omil

Kalit so'zlar

Boshlang'ich ta'lim, kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, metodik bilim, kommunikativ ko'nikma, psixologik yondashuv, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, differensial ta'lim, o'quvchi shaxsi, mustaqil fikrlash, ta'lim sifati.

АННОТАЦИЯ

Данная тема посвящена раскрытию профессиональных компетенций учителя начальных классов. В ней подчеркивается важность педагогических, психологических, методических и коммуникативных знаний и умений учителя. Также рассматривается необходимость применения современных образовательных технологий, умения эффективно взаимодействовать с учащимися и учитывать их индивидуальные особенности. Учитель с высоким уровнем профессиональной компетентности играет ключевую роль в формировании гармонично развитой личности учащихся.

ANNOTATION

This topic is devoted to the analysis of professional competencies of primary school teachers. It highlights the importance of pedagogical, psychological, methodological, and communicative skills. The role of modern educational technologies, effective interaction with students, and consideration of their individual characteristics are emphasized. A highly competent primary school teacher plays a crucial role in shaping well-rounded and developed learners.

O'qituvchining, pedagogik mahorati uning malakasi, pedagogik qobiliyati, pedagogik kompetentsiyasining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi usullardan biri bu doimiy kasbiy kompetentligini ta'lim malakalarini oshirib borishdir. Ushbu kurs ishining bo'lajak mutaxasislarda kasbiy kompetensiyalar, metodik kompetentlik, uning tarkibiy qismlari, metodik kompetentsiyaning vazifalari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ushbu kompetentsiyani qanday shakllantirish mumkinliga haqida so'z yuritilgan. boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy-pedagogik faoliyatini mazmunli va sifatli tashkil etish,

o'quvchilarning bilimini oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatishning zaruriy jihatlari yoritilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirishning zaruriy jihatlari ochib berilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar pedagogik, psixologik va sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur maqolaning boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy muloqat kompetentligini rivojlantirishning pedagogik psixologik xususiyatlari ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Mavzuga oid sharq allomalarining, xorijiy va respublikamiz olimlarining ilmiy qarashlari umumlashtirilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muloqat kompetentligini rivojlantirish nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmate'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Bilimga asoslangan iqtisodiyot ta'lim va kasbiy kompetentligi tayyorgarlikning yangi modellarini talab qiladi. Bunda davriy malaka oshirishdan farqli ravishda ijtimoiy va iqtisodiy muvofiqlik imkoniyatiga ega bo'lgan «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimida metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirishning

ko'p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, jamiyat, fan va ta'limning yangi yo'nalishlari o'qituvchini innovatsion metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish zaruriyatini kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini ilmiy jihatdan tahlil qilish natijasida quyidagi qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi. Zamonaviy ta'limni innovatsion jarayonlarga yo'naltirish va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion o'quv jarayonini amalga oshirishga doir nazariy va uslubiy tayyorgarligi o'rtasida. boshlang'ich sinf o'qituvchisini uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati va mavjud holatda bu jarayonga ilmiy-metodik yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida, o'qitishning an'anaviy bilimga asoslangan yondashuvi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kompetentlikka asoslangan, faol va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni talab qiladigan ta'limdagi zamonaviy innovatsion tendensiyalar o'rtasida, o'qituvchilarning innovatsion metodik tayyorgarligi sifatini oshirish zaruriyati va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun rivojlantiruvchi texnologiyalar va mexanizmni resursli qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi o'rtasida. Yuqorida qayd etilgan obyektiv va subyektiv ziddiyatlar pedagogik hodisaning mohiyatini boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun pedagogik shartsharoitlarni aniqlashdan iborat bo'lgan tadqiqot muammosini faollashtiradi. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar va mavjud holat tahlilidan ko'rinadiki, quyidagilar o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o'zini o'zi tahlil qilish va baholash, o'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz malaka oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

- ta'lim sohasida xalqaro tajribalar va qiyosiy tahlil natijalari;
- zamonaviy texnologiyalarning takomillashuvi;
- jamiyat ehtiyoji hamda ta'limga bo'lgan talabning o'sishi;

- jamiyat ehtiyoji va talablari asosida o'qituvchi rolining o'zgarishi;

- DTS va o'quv dasturlarining optimallashtirilishi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan boshlang'ich bosqichda o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash qobiliyati va shaxsiy fazilatlarini shakllana boshlaydi. Shuning uchun o'qituvchi yuqori darajadagi pedagogik mahoratga, chuqur bilimga va kuchli kommunikativ qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur. Zamonaviy ta'lim jarayoni o'qituvchidan nafaqat an'anaviy bilim berishni, balki innovatsion yondashuvlarni qo'llashni ham talab etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, interfaol metodlarni joriy etish, o'quvchilarni faollikka undash – bularning barchasi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, o'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, differensial yondashuvni qo'llay olishi muhimdir. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'qituvchisi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, bilim va ko'nikmalarini yangilab borishi lozim. Chunki ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, yangi dastur va metodlar o'qituvchidan moslashuvchanlikni talab qiladi. Kasbiy rivojlanishga intilgan o'qituvchi o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishadi va o'quvchilarga sifatli ta'lim beradi.

Xulosa Bunday o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo'l boshchi va motivator sifatida jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. Bugungi kunda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" talablarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Shunday ekan, ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli soha egalarini tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Qonunda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida o'qituvchi kasbiy-metodik kompetentligini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda psixologiyaning o'z uslub va qoidalari

yetarli bo'lmaganday. Shunga ko'ra yosh avlod ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o'qitish texnologiyalarini ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish hamda psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchidan metodik kompetentlik, ayniqsa, turli xil sharoitlarda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi psixologiyasini to'g'ri baholay olish bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yuqori darajada bo'lishi talab qilinadi. Jamiyatning ehtiyojlari, fan va amaliyotning rivojlanishi, inson shaxsini rivojlantirishga tobora ortib borayotgan talablar, o'zgaruvchan ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarga tez va adekvat javob berish qobiliyati, o'z faoliyatini qayta qurishga tayyorligi va yangi, yanada murakkab muammolarni mohirona hal qilishga tayyorligi bilan belgilanadi. O'z-o'zini rivojlantirishning ma'nosi bilim faoliyati qoniqishida, o'qituvchining ortib borayotgan ehtiyojida, uzluksiz ta'lim orqali o'zini o'zi anglashda namoyon bo'ladi. O'z-o'zini rivojlantirishning mohiyati aqliy mehnatning texnikasi va madaniyatini, muammolarni bartaraf etish, mustaqil ravishda o'z ustida ishlash, shu jumladan kasbiy mahoratni o'zlashtirishdir. O'rganilgan ilmiy tadqiqot natijalari va tahlillari hamda kuzatishlarimiz natijasida, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarda kasbiy rivojlanishning quyidagi komponentlarining rivojlanishini inobatga olish lozim degan xulosaga keldik. pedagogik faoliyatdagi boshqaruvchanlik, texnologik usul va uslublarni ishlab chiqish. pedagogik faoliyatning har bir aniq turini loyihalash, tashkillashtirish va amalga oshirish. o'qitish jarayoniga mantiqiy yakunlangan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish. pedagogik masalalarni ilgari surishda o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlari va bilim darajasini hisobga olish. o'quvchilarning faoliyati natijalarini baholash va hisobga olish. o'quvchining motivatsiyasini rivojlantirish; o'quvchi bilan ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlarni shakllantirish; o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini va jamiyatning talablarini ko'ra bilish kasbiy kompetensiyaning shakllanish istiqbolini belgilash va uni amalga oshirish o'quvchining samarali ta'lim olishi va natijaga erishishi uchun metodik tizim

yaratish o'quvchilarning xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarligining metodik tizimini yaratish va amaliyotga tatbiq etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. AA.Xoliqov Pedagogik mahorat T: "IQTISOD MOLIYA" 2011yil 119-130 bet
2. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-181-190 Google Scholar Scientific Library of Uzbekistan Academic Research, Uzbekistan 204 www.ares.uz
3. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-181-190 Google Scholar Scientific Library of Uzbekistan Academic Research, Uzbekistan 205 www.ares.uz
4. B. S. Siddiqov, Sh. N. Mexmonaliyev Pedagogik amaliyotning bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik faoliyatida tutgan o'rni. VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-10-16
5. <http://kompy.info/buxoro-davlat-universiteti-pedagogika-fakulteti-pedagogika-kaf.html?page=17>

6. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.

7. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317